

JAMOATCHILIK FIKRI O'ZBEKISTONDA ANIQLANISH MEZONLARI

Mirzayeva Sevinch Jumaboy qizi

O'zbekiston Milliy Universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti Sotsiologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi.

Ilxomov Umrbek Ulug'bek o'g'li

Ilmiy rahbar.

Sotsiologiya kafedrasi stajyor o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18288606>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistondagi jamoatchilik fikri haqida, uning muhimlik darajasi haqida keng yoritilib berilgan. Jamoatchilik fikri sotsiologiyasi ta'rifi keltirilgan. Mazkur maqolada O'zbekiston jamoatchilik fikri va jamoatchilik sotsiologiyasiga oid dolzarb mavzular va shu mavzular borasidagi ilmiy tadqiqotlar qisqacha bayon qilinadi. Bu tadqiqotda jamoatchilik fikri va uni o'rganish maqsad-vazifalari, ularning amaliyotda qanday o'rnatilishi va natijalariga e'tibor qaratiladi. Tadqiqot natijalari, jamoatchilik fikrini O'zbekistonning ertangi kuniga qanday ta'sir qilishi va uning roli qanchalar muhim ekanini o'rganishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Jamoatchilik fikri, sotsiologiya, tadqiqot, ilmiy maqsad, jamoatchilik, amaliyot.

Abstract. In this article, public opinion in Uzbekistan and its level of importance are discussed in detail. The definition of sociology of public opinion is presented. In this article, current topics related to public opinion and public sociology of Uzbekistan and scientific research on these topics are briefly described. In this study, attention is paid to public opinion and the objectives of its study, how they are established in practice, and their results. The results of the research help to learn how public opinion affects the future of Uzbekistan and how important its role is.

Keywords: Public opinion, sociology, research, scientific purpose, public, practice.

Аннотация. В данной статье подробно рассматривается общественное мнение в Узбекистане и его уровень значимости. Дается определение социологии общественного мнения. В данной статье кратко описываются актуальные темы, связанные с общественным мнением и общественной.

социологией Узбекистана, а также научные исследования по этим темам. В данной работе уделяется внимание общественному мнению и целям его изучения, тому, как они устанавливаются на практике, и их результатам. Результаты исследования помогают узнать, как общественное мнение влияет на будущее Узбекистана и насколько важна его роль.

Ключевые слова: общественное мнение, социология, исследование, научная цель, общественность, практика.

Jamoatchilik fikri - ijtimoiy voqealarga, turli guruhlar, tashkilotlar va ayrim shaxslar faoliyatiga bo'lgan yashirin yoki oshkora munosabatlarni o'z ichiga oluvchi ommaviy ong shakli bo'lib, ijtimoiy masalalarni ma'qullash yoki qoralashda namoyon bo'ladi, individlar, ijtimoiy guruhlar xatti-harakatini va ijtimoiy munosabatlarda muayyan me'yorlarni belgilaydi.

Umuman jamiyat doirasida ham, turli ijtimoiy guruhlar doirasida ham amal qiladi.

Jamoatchilik fikrining faolligi va ahamiyati jamiyatning strukturaviy xarakteri, ishlab chiqaruvchi kuchlarning, madaniyatning, demokratik huquqiy me'yorlar va erkinliklarning taraqqiyot darajasi bilan belgilanadi. Jamoatchilik fikri hokimiyat organlarini saylashda, ommaviy kommunikatsiya vositalarida, aholi so'rovlari va boshqalarda o'z ifodasini topadi. "Jamoatchilik fikri" atamasi inglizcha "public opinion" so'z birikmalaridan olingan bo'lib, u XVII asrda dastlab Angliyada qo'llanilgan, keyinchalik boshqa mamlakatlarga o'tib XVIII asr oxiridan boshlab keng tarqalgan. Jamoatchilik fikrining o'zi nima? Jamoatchilik fikri-xalq istaydigan narsani bilishning noorganik uslubidir. Gegelning aytishicha, jamoatchilik fikrida hamisha haqiqiy va haqiqiy bo'lmagan narsalar chatishibketsada, u har bir davrda katta kuchga ega bo'ladi.

Jamoatchilik fikri sotsiologiyasi - ijtimoiy guruhlarining mavjud ijtimoiy voqelikka nisbatan baholovchi munosabatining shakllanishi va amal qilishi qonuniyatlarini o'rganuvchi fandir. O'zbekistonda "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish markazi 1997- yilda tashkil etilgan bo'lib, markaz mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy hayoti, davlat siyosati va hukumat faoliyati to'g'risidagi jamoatchilik fikrini taxlil qiladi va umumlashtirib beradi.

O'zbekistonda jamoatchilik fikrini o'rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Toshkent shahridagi "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish markazining faolligi bu sohadagi imkoniyatlarimizni fikrini tabiiy o'rganishda va bu bilan shug'ullanayotgan sotsiologik tadqiqot markazlari va xizmatlarining ta'siri katta. Yaqinda markazda bo'lib o'tgan sotsiologik tadqiqotda ishtirok etgan bo'lsam, mamlakatimizda jamoatchilik fikrini o'rganish mutlaqo shaffof ekanini ayta olaman. Yana aytishim mumkin-ki, respublikamizdagi muammolarga qarshi qo'llanilayotgan chora-tadbirlar hamjamoatchilik fikrini inobatga olib ko'zda tutilmoqda. Masalan, yaqinda o'tkazilgan ekologik tadqiqotda shahar hududining qizil, sariq, yashil zonalarga bo'linishi, ishlab chiqarilganiga 10 yildan oshgan avtomobillarni shahar hududiga kiritilish yoki kiritilmasligi, A-80 markali benzin umuman olganda kerakmi yoki aksi, yo'lkira narxlari oshishi kerakmi va bunga jamoatchilik tayyormi kabi masalalar ko'rib chiqildi. Keyingi tadqiqot esa aholi salomatligi, ularning qanchalik baxtiligi haqida, tibbiy muammolari to'g'risida o'tkazildi.

Jamoatchilik strukturasini tahlil qilishda birinchi navbatda uning obyekti va subyekti masalalariga e'tiborni qaratish zarur. Jamoatchilik fikrining obyektini aniqlashda dastavval 2 ta muammo e'tiborga molikdir.¹ Jamoatchilik fikrini unda aks ettirilayotgan voqelikning o'ziga xosligi nuqatayi nazaridan tahlil etish. Boshqacha qilib aytganda, jamoatchilik fikri dunyodagi hamma narsa to'g'risida fikr qila olishi mumkinmi yoki uning mulohaza doirasi chegaralanganmi?

U yoki bu hodisa, jamoatchilik fikrining obyektiga aylanishining mezonlarini aniqlash, boshqacha aytganda, jamoatchilik fikrini uyg'otadigan obyekt qanday sifat va xususiyatlari bilan farqlanadi.

Jamoatchilik fikrining 3 xil ifodalanishini kuzatsa bo'ladi:

1. Jamoatchilik fikrining stixiyali ifodalanishi;
2. Siyosiy institutlar tashabbusiga ko'ra biror bir qonunni muhokama qilish yoki chora-tadbir masalan referendum, umumxalq muhokamasi kabilarni o'tkazish jarayonida jamoatchilik fikrining bildirilishi;
3. Maxsus sotsiologik tadqiqotlar, ya'ni so'rovlar paytida jamoatchilik fikrining aniqlanishi;

¹Aliqoriyev N.S Ubaydullayeva R.T Umumiy sotsiologiya-1999

Jamoatchilik fikri ijtimoiy hayot faktlariga nisbatan, masalan davlatning va uning turli institutlarining harakatiga, faoliyatiga nisbatan doimo aniq munosabatga ega bo'ladi. Bu narsa jamoatchilik fikriga hokimiyat institutlaridan ayri turuvchi va bu institutlar faoliyatini baholab boruvchi va nazorat qila oluvchi kuch baxsh etadi. Shuning uchun siyosatchilar ko'pincha jamoatchilikka, aniqrog'i uning fikriga tayangan holda ish ko'rishga, ya'ni jamoatchilik fikrining ma'naviy kuchi bilan hisoblashishga majbur bo'ladilar. Jamoatchilik fikrining bu ekspressiv-nazorat funksiyasi ayniqsa demokratik tartibga asoslangan jamiyatlarda katta ta'sirga ega bo'ladi. Hozirgi davrda jamoatchilik fikrini tizimli va keng ko'lamda o'rganish dunyoning rivojlangan mamlakatlaridagi ijtimoiy-siyosiy hayotning ajralmas qismiga aylangan. Uning yordamida turli ijtimoiy dasturlar va tadbirlar olib boriladi va samaradorligi aniqlab beriladi. O'zbekistonda "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish markazining o'z faolligi mamlaktimizda bu sohadagi ishlarga katta imkoniyatlar yaratdi.

YANGI O'ZBEKISTONDA JAMOATCHILIK NAZORATINING HUQUQIY ASOSLARI

Har qanday jamiyat va mamlakat ravnaqi uning ishtirokchilari, ya'ni fuqarolar sa'y-harakati bilan amalga oshadi. Bu jarayonda esa jamoatchilik nazorati alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, O'zbekiston Prezidenti ta'kidlaganidek, Konstitutsiya va qonun ustuvorligiga erishishda jamoatchilik nazoratidan ko'ra samarali vosita yo'q. Shu ma'noda, bundan 7-yil ilgari mamlaktimizda «Jamoatchilik nazorati to'g'risida»gi qonun qabul qilingani muhim voqeadir.

Ushbu qonun 2018-yil 12-aprelda qabul qilingan bo'lib, 2021-yil 21-apreldagi qonun bilan unga ayrim o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Ko'plab rivojlangan mamlakatlar tajribasida uchramaydigan bunday yaxlit qonunning qabul qilinishi keng jamoatchilik tomonidan ijobiy kutib olindi. Aksariyat ekspertlarning fikricha, ayni qonun tegishli yo'nalishdagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Qonun bilan jamoatchilik nazoratining subyektlari, uni amalga oshirish shakllari va huquqiy mexanizmlari aniq belgilab berildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatga olingan nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari – jamoatchilik nazorati subyektlari hisoblanadi.

Jamoatchilik nazorati, qonunning 3-moddasida belgilanganidek, jamoatchilik kengashlari, komissiyalari va boshqa jamoatchilik tashkiliy tuzilmalari tomonidan ham qonunchilikka muvofiq amalga oshirilishi mumkin.

Qonunning 4-moddasida jamoatchilik nazoratining obyektlari sanab o'tilgan. Unga ko'ra, davlat organlarining va ular mansabdor shaxslarining:

qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda, qarorlarda, shuningdek rivojlanish davlat, tarmoq va hududiy dasturlarida jamoatchilik manfaatlarini, jamoatchilik fikrini hisobga olishga;

fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamiyat manfaatlarini himoya qilish sohasidagi qonunchilik talablarining ijro etilishini ta'minlashga;

o'z zimmasiga yuklatilgan, ijtimoiy va jamoatchilik manfaatlariga daxldor bo'lgan vazifalar va funksiyalarni bajarishga;

davlat xizmatlarini ko'rsatishga;

ijtimoiy sheriklik doirasida amalga oshiriladigan bitimlar, shartnomalar, loyihalar va dasturlarni bajarishga doir faoliyati jamoatchilik nazoratining obyektidir. Qonunning 5-moddasida jamoatchilik nazoratining 7 ta asosiy prinsipi mustahkamlab qo'yilgan.

Bular:

qonuniylik;

fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlar ustuvorligi;

jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ishtirok etishning ixtiyoriyligi;

jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning ommaviyligi va ochiqligi;

jamoatchilik nazorati subyektlarining xolisligi va beg'arazligi;

jamoatchilik nazorati natijalarining ishonchiligi;

jamoatchilik nazorati subyektlarining davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatiga asossiz aralashuviga va ularga g'ayriqonuniy ta'sir ko'rsatishiga yo'l qo'yilmasligi.

O'z navbatida, qonunning 6-moddasida qayd etilganidek, jamoatchilik nazoratining shakllari quyidagilardan iborat:

davlat organlariga murojaatlar va so'rovlar;

davlat organlarining ochiq hay'at majlislarida ishtirok etish;

jamoatchilik muhokamasi;

jamoatchilik eshituvi;

jamoatchilik monitoringi;

jamoatchilik ekspertizasi;

jamoatchilik fikrini o'rganish;

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan davlat organlari mansabdor shaxslarining hisobotlari va axborotini eshitish. Jamoatchilik nazoratining ushbu shakllari ayni vaqtda barcha davlat tashkilotlari faoliyatida tobora keng qo'llanilmoqda. Misol uchun, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi huzuridagi Jamoatchilik kengashining oxirgi yig'ilishlarida: birinchidan, Milliy markazning 2024-yildagi faoliyati bo'yicha hisobot eshitildi; ikkinchidan, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasining 2020-2024-yillarda bajarilishi holatiga baho berildi; uchinchidan, Milliy markaz tomonidan «O'zbekiston — 2030» strategiyasini «Atrof-muhitni asrash va «yashil iqtisodiyot» yilida amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq ishlab chiqilayotgan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha Milliy strategiyasi loyihasi muhokama qilindi. Bu haqda so'z borganda, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bevosita 2023-yil 30-aprelda o'tkazilgan umumxalq referendumida qabul qilinganini alohida ta'kidlash lozim. Chunki, Konstitutsiyaviy komissiya raisi akademik Akmal Saidov ta'biri bilan aytganda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada jamiyatning barcha qatlamlari manfaatlar inobatga olingani, Yangi O'zbekistonni qurish g'oyasi atrofida butun jamiyat jipslashgani – Bosh Qomusimiz tom ma'noda xalq Konstitutsiyasi ekanidan dalolat beradi.

Binobarin, Asosiy qonunimizning 9-moddasiga muvofiq, «Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumxalq ovozigina — referendumga qo'yiladi». Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada jamoatchilik nazoratini kafolatlaydigan normalar alohida o'rin tutadi.

Xususan, 2-moddadagi quyidagi normalarning o'ziyoq yurtimizda jamoatchilik – jamiyat va fuqarolarning maqomi naqadar yuksakligini yaqqol tasdiqlab turibdi: «Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar». Yanada muhimi, «jamoatchilik nazorati» tushunchasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyada konstitutsiyaviy institut maqomiga ko'tarildi.

Ya'ni, Bosh qomusimizning 36-moddasiga binoan: «O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega. Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda shakllantirish, shuningdek davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati vositasida amalga oshiriladi. Davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tartibi qonun bilan belgilanadi».

Shuningdek, Konstitutsiyamizga ilk marotaba fuqarolik jamiyati institutlariga – jamoatchilik nazoratining asosiy subyektlariga bag'ishlangan alohida «Fuqarolik jamiyati institutlari» nomli XIII bob kiritildi. Asosiy qonunimizning 69-moddasiga ko'ra: «Fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi». Konstitutsiyaning eski matnida «jamoat birlashmalari» tushunchasiga berilgan ta'rif yanada aniqlashtirildi. Bosh qomusimizning 70-moddasi jamoat birlashmalari faoliyatini kafolatlovchi norma bilan to'ldirildi. Endilikda ushbu konstitutsiyaviy moddaga binoan: «O'zbekiston Respublikasida kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar tashkilotlari, faxriylar, yoshlar va nogironligi bo'lgan shaxslar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar hamda fuqarolarning boshqa birlashmalari jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etiladi».

Shuni ham qayd etish joizki, Konstitutsiyaning 115-moddasi o'ninchi bandida hukumatning asosiy vakolatlaridan biri sifatida: «ijro hokimiyati organlarining ishida ochiqlik va shaffoflikni, qonuniylik va samaradorlikni ta'minlash, ularning faoliyatida korrupsiya ko'rinishlariga qarshi kurashish» vazifasi belgilangan. Bu, o'z navbatida, ayni jarayonlarda fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan jamoatchilik nazorati olib borilishini ham nazarda tutadi. Mazkur yangi konstitutsiyaviy normalar fuqarolik jamiyati institutlarining mamlakatimiz hayotidagi rolini yanada oshirish bundan buyon ham e'tibor markazida bo'lishini tasdiqlaydi.

Bu bejiz emas. Chunki mahallalar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari mamlakatimiz hayotining barcha sohalaridagi qamrovdor islohotlar ustidan jamoatchilik nazorati samaradorligini, shuningdek, fuqarolarning demokratik o'zgartirishlardagi faolligini oshirishda beqiyos o'rin tutadi. Shuning uchun ham, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyat ko'rsatadigan huquqiy makonni kengaytirish maqsadida, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi talablaridan kelib chiqib, 2018-yil 12-aprelda «Jamoatchilik nazorati to'g'risida»gi qonun qabul qilindi.

Ayni yo'nalishda, shuningdek, bir qator qonunlar yangi davr talablari asosida takomillashtirildi, Prezident farmon va qarorlari qabul qilindi hamda ijroga qaratildi. O'z navbatida, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ushbu sohaning joriy va istiqboldagi ustuvor maqsadlari hamda asosiy vazifalari belgilab berildi.

Bunda, avvalambor, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining 1-maqjadi «Mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo'g'iniga aylantirish», deb nomlanganiga e'tibor qaratish zarur. Ayni vaqtda bu borada izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Mahalla instituti tizimi tubdan yangilanib va davr ruhiga mos ravishda takomillashtirib borilayotgani bunda alohida ahamiyat kasb etadi.

Taraqqiyot strategiyasining 4-maqjadi «Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini «fuqarolarga xizmat qilishga yo'naltirish» tamoyili asosida transformatsiya qilish» deb nomlangan. Unda, xususan, davlat boshqaruvi organlari faoliyati ustidan davlat nazoratini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvi vujudga kelishini bartaraf etish, mazkur jarayonga keng jamoatchilikni jalb qilish; vazirlik va idoralar faoliyatining barcha yo'nalishlarini «Davlat – xalq xizmatchisi» tamoyili asosida fuqarolarga xizmat qilishga yo'naltirish vazifalari belgilangan.

Eng asosiysi, Taraqqiyot strategiyasining «Ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish» deb nomlangan 12-maqsadida bu boradagi bir qator muhim vazifalar nazarda tutilgan. Jumladan, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini rivojlantirish uchun, xususan, Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda hududiy, tarmoq va davlat dasturlari loyihalarini ochiq e'lon qilib, keng jamoatchilik fikri asosida ishlab chiqish amaliyoti yo'lga qo'yilayotgani ahamiyatlidir.²

Mazkur yo'nalishda «O'zbekiston–2030» strategiyasida ham muhim maqsad va vazifalar belgilangan. Bunga Prezidentimizning 2025-yil 7-fevraldagi Farmoni bilan tasdiqlangan «O'zbekiston – 2030» strategiyasini «Atrof-muhitni asrash va «yashil iqtisodiyot» yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi yaqqol misoldir.

Ayniqsa, «O'zbekiston–2030» strategiyasidagi:

74-maqsad – aholi farovonligini ta'minlash va hududlarda kundalik masalalarni hal etishda mahallani jamoatchilik hamda davlat organlari o'rtasidagi «tayanch ko'pri»ka aylantirish.

75-maqsad – mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarini xalqning chinakam «ovozi»ga aylantirish;

76-maqsad – mahalliy davlat hokimiyati ijro organlari faoliyatini transformatsiya qilib, hududiy boshqaruvni «aholi manfaatlariga xizmat qilish» tamoyili asosida yo'lga qo'yish;

77-maqsad – davlat xizmatlarini raqamlashtirishning ko'lamini kengaytirish orqali aholi uchun «Servis davlat» tizimini joriy qilish, fuqaro va davlat o'rtasidagi munosabatlarda byurokratik tartibotlarga barham berish;

78-maqsad – davlat boshqaruvi organlari faoliyatini «Xalq xizmatidagi davlat» tamoyili asosida tashkil etish;

79-maqsad – Yangi O'zbekistonni barpo etishda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalar rolini oshirish kabi maqsadlar ijobatiga qaratilgan ko'plab chora-tadbirlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

Muxtasar aytganda, hozirgi vaqtda yurtimizda jamoatchilik nazoratining qonuniy asoslari yanada mustahkamlanmoqda. Shu asosda jamoatchilik nazoratining samarali va ta'sirchan shakllari, ularni amalga oshirish mexanizmlari izchil joriy etilayotgani juda muhim.

²<http://nhrc.uz/oz/news/m15278>

Zero, O'zbekiston Prezidenti ta'kidlaganidek, «jamoatchilik nazorati bu — faqatgina davlat idoralari faoliyati ustidan nazorat emas, balki jamiyatning o'zini o'zi boshqarish usuli, boshqacha aytganda, fuqarolik jamiyatini taraqqiy toptirishning muhim omillaridan biridir».

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, jamoatchilik fikrini aniqlash mezonlari O'zbekistonda ham, xorijiy davlatlarda ham demokratik boshqaruv va samarali qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda so'nggi yillarda ochiqlik, ijtimoiy so'rovlar, ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalar orqali fuqarolar fikrini o'rganish tizimi bosqichma-bosqich takomillashib bormoqda. Xorijiy tajribada esa mustaqil sotsiologik tadqiqotlar, statistik aniqlik, metodologik xilma-xillik va jamoatchilik ishonchi yuqori darajada yo'lga qo'yilgan.

Taqqoslash shuni ko'rsatadiki, samarali jamoatchilik fikrini aniqlash uchun mezonlarning shaffofligi, ishonchliligi, muntazamligi va natijalarning amaliy qarorlarga tatbiq etilishi muhimdir.

Ushbu mezonlarni uyg'unlashtirish va ilg'or xalqaro tajribani milliy sharoitga moslashtirish O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini mustahkamlash, davlat va jamiyat o'rtasidagi muloqotni kuchaytirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Aliqoriyev N.S Ubaydullayeva R.T Umumiy sotsiologiya-1999
2. Aliqoriyev N.S va boshqalar. Oliy o'quv yurtlari professor o'qituvchilari faoliyatirivojlantirish bo'yicha tavsiyalar. Ta'lim muammolari, ilmiy-uslubiy yutuqlar va ilg'ortajribalar. T., 3-6, 1997
3. Aliqoriyev N.S. Sotsiologiya va ta'lim taraqqiyoti. Ta'lim muammolari, ilmiyuslubiy yutuqlar va ilg'or tajribalar. T.2, 1998
4. [4.http://nhrc.uz/oz/news/m15278](http://nhrc.uz/oz/news/m15278)